

**Date: 21<sup>st</sup> October-2025**

**TARIX – MUHRI BUZILMAGAN XAZINA.**

**Abduazimova Shohsanam Umidjanovna**

O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Hamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabi 11-sinf o'quvchisi



Vatan – tafakkur ostidagi ma'naviy kenglikni to'ldirgan poyonsiz tushuncha. Cheksiz qudrat, hurlik mavjud bu ulug'vor so'z. Vatan – daryolar oshiqadigan, nurlar yog'iladigan, shodlik shoshadigan, quvonch quvnaydigan makon. Inson esa bu makon go'zalliklaridan qalb ummoni toshib, tafakkuri mavjlanadigan yuksak aql sohibidir. Ona yurt misli qimmatbaho Ko'hinur olmosi kabi Vatan ichida yashaguvchi farzandlar uchun ardoqlidir. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzod ham o'z ona tuprog'ida baxt osmonini quchib, uning ravnaqi yo'lida sobit xizmat qiladi. Har bir inson o'z hayotini mazmunli yashashi uchun o'z xalqi tarixini yaxshi bilishi zarur.

Birinchi prezidentimiz **Islom Karimovning** ta'biri bilan aytganda, har bir o'zbek farzandi:” Mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan?” - degan savollarni o'ziga berishi kerak. Biz Vatanimiz O'zbekiston nomini olgunicha bo'lib o'tgan voqealarni, xalqimiz chekkan mashaqqatlarni his qilishimiz lozim.”O'z tarixi, kelib chiqishi va madaniyatidan bexabar xalq ildizsiz daraxtga o'xshaydi”,-deydi mashhur Yamayka siyosatchisi **Markus Garvi**. Haqiqatdan ham, har bir inson o'z ajdodlari tarixiga nazar solishi, ular qilgan xatolarni takrorlamasligi lozim.O'tmish insoniyat dunyo qarashining kengayishiga yordam beradi. Uni chuqur fikrlashga undaydi.Tarixi nsonlar bergan savollarga javob beradi. Tarix – eng yomon o'quvchilarga ega eng yaxshi o'qituvchi.



**Date: 21<sup>st</sup>October-2025**

**Abu Rayhon Beruniy** Qadimgi tarixlarning eng qadimiysi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”,- deb yozganida mutlaqo haq edi. Biz qadimda ulug‘ xonlarning, sarkardalarning yurtimizga qilgan hujumlari va bu janglarda mardonavor kurashgan Vatan qahramonlari haqida xabardormiz. Ayniqsa, davlatni adolat bilan boshqarib, shu yurt uchun jonini fido qilib, tarixda o‘chmas iz qoldirgan **Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro** kabi jasur davlat arboblari haqida qancha gapirsak ham oz. Chunki ular dunyoga dong‘I ketgan buyuk zotlar hisoblanadi. Bosib olgan davlatlarini adolat bayrog‘I ostida birlashtirib, ulkan davlatga asos slogan sohibqiron bobomiz Amir Temur haqida fikr yuritar ekanmiz, ko‘z oldimizda yuksak aql-u zakovat sohibi, qat’iyatli sarkarda siymosi paydo bo‘ladi. Sohibqiron bobomizning buyuk ishlari dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shdi. Xalqqa doim mehr- muruvvatli bo‘lgan bu zot adolat va haqiqat uchun kurashdi, saltanatni ham anashu mustahkam asosga qurdi. Amir Temur xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug‘vorligi o‘ziga muvofiq, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqni so‘zlovchi kishi bo‘lgan. Najmiddin Kubro timsoli esa bizni doim yurti sevishga, uning har kaft tuprog‘ini asrab-avaylashga undaydi. Najmiddin Kubro o‘lganidan keyin ham Vatan bayrog‘ini qo‘lida mahkam ushlab turgan. Hech kim bayroqni uning qo‘lidan yulib ololmagan. Natijada, uning barmoqlarini kesib, bayroqni olishga muvaffaq bo‘lishgan. Buyuk bobolarimizning Vatan ozodligi yo‘lida ko‘rsatgan jasoratlari tahsinga loyiq. Britaniyalik yozuvchi Uinston Cherrill aytganidek:” Tarixni g‘oliblar yaratadi”.

Xalqimizning uch ming yillik boy tarixi keying yuz-yuz ellik yil davomida bir taraflama yoritildi, uning talaygina yorqin sahifalari e‘tiborga olinmadi yoki qasddan soxtalashtirildi. Xalqimiz turli tazyiqlar ostida o‘z urf-odati, madaniyati, an‘analarini unuta boshladi, ayrim kishilarda hatto manqurtlik belgilari paydo bo‘ldi. Bu xavfli jarayon sho‘rolarning totali tartizimi davrida kuchaydi. Mahalliy aholi bunday mensimaslikdan o‘ksidi, ziyolilarimiz ko‘ngli g‘ash bo‘ldi, iztirob chekdi.

**Abdurauf Fitrat** o‘zining” Temur sag‘anasi” asarida sho‘rolar istibdodidan qutulishga Sohibqiron ruhidan iltijo qiladi, g‘oyibona maslahat so‘raydi. Ikkinchi jahon urushi tugagach, sho‘rolarning qatag‘onlik siyosati qayta kuchaydi. Xususan, **Shukrullo, Saida Zunnunova** kabi adiblar hayotida ro‘y bergan ko‘rgiliklar bunga yaqqol dalildir. Yoki **Abdulla Qahhorning:**” Men partiya yugurdagi emasman, men xalq xizmatkoriman”,- deb aytgan iborasi jasorat belgisi edi. Urushdan keyin partiya tomonidan yozuvchilarga sovet voqeligida aks etgan nuqsonlar va qiyinchilik tasviridan qochish, hayotni “gulgun” ranglar bilan aks ettirish vazifasi topshirildi. Hayotda biror kamchilik ko‘rgan har qanday ijodkor ta‘qibiga uchradi. Birgina so‘zi bilan ayotganda millat erki kishanlandi.

**Tarix** – munavvar ko‘zgu, tafakkur bulog‘i. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, ba’zi insonlarning yuksak zakovati tufayli, ayrimlarning esa xatoliklari sababli tarixda iz qoldirib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Biz tarixni avval yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamalik uchun, ajdodlarimizning qanday fazilatlarga ega bo‘lganliklarini bilish uchun o‘qiymiz. **Jorj Santayana** aytganidek:” O‘tmishni eslamaganlar uni takrorlashga

**Date: 21<sup>st</sup>October-2025**

mahkum”. Tarix insonga o‘zlikni anglashga yordam beradi. Tarix xuddi hech qachon uyg‘onging kelmaydigan tushga o‘xshaydi. Uni ko‘rishing bilan o‘z dunyongni tark etasan kishi. Aslida, har soniya bir tarix. Inson tarixga yaxshi yoki yomon nom bilan kirishi uning o‘ziga bog‘liq. Bu gapga **G‘afur G‘ulomning** “ Vaqt” she’ri misol bo‘la oladi. **Gerostrat** kabi mashhur bo‘lishning yomon tarafini tanlagan insonlar bir umr yomon nom bilan tilga olinadi. Hech kim ularni eslashni xohlamaydi. Aslida, hech kim tarixni yaratmaydi. Aksincha, tarix bizni yaratadi. O‘z hayotini go‘zal va mazmunli o‘tkazish har bir insonning o‘ziga bog‘liq. Darhaqiqat, tarix – bu porloq ko‘zgu, tunganmas saboq maktabi.

